



BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI UCHUN INTERFAOL METODLAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKILLASHDA USLUBIY TAVSIYALAR

Yuldashova Go'zal Kamiljon qizi

*Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim 2-kurs*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili va o'qish fanlarini o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish va metodlarnig o'ziga xos afzalliklari haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Interfaol usullar, ta'limiy o'yinlar, "So'z va hodisalarni eslash" ta'limiy o'yini, "Begona" o'yini, "Topag'on" o'yini, "Kim ko'p so'z tuzadi" o'yini.*

Аннотация: *В данной статье представлены мнения об использовании интерактивных методов и конкретных преимуществах методов в обучении родному языку и предметам чтения младших школьников.*

Ключевые слова: *Интерактивные методы, развивающие игры, развивающая игра «Запомни слова и события», игра «Незнакомец», игра «Топог'он», игра «Ким к'п загадывает слово».*

Abstract: *In this article, opinions about the use of interactive methods and specific advantages of methods in teaching native language and reading subjects to elementary school students are presented.*

Key words: *Interactive methods, educational games, educational game "Remember words and events", "Stranger" game, "Topag'on" game, "Kim k'p makes a word" game.*

Maktab hammamiz uchun qadrdon maskan. Bizga ilm o'rgatuvchi, tarbiya beruvchi muqaddas dargoh. O'quvchilar uchun kichik bir Vatan. Har bir iqtidor va qobiliyatni yuzaga chiqarish, o'quvchining intilishlariga munosib yo'l ko'rsatishda maktabning ahamiyati benihoya katta. So'ngi yillarda maktablarning moddiy texnika bazasini rivojlantirish, ularni ilmiy metodik jihatdan ta'minlash borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Yurtimizda maktab ishlari yuksak sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ta'lim-tarbiya berish jarayonlari ham zamonaviy tarzda tashkillanayotgani ham davrni shiddad bilan rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shundan zamon rivojlarayotgan paytda ta'lim jarayonlarini ham o'ziga xos yangi metod va ta'limiy o'yinlar bilan tashkillash har bir o'qituvchi-ustozlar uchun mas'uliyatli ishlashni, o'quvchilarga bilim berishdan ijodkorlik bilan yondashish kerakligini taqazo etadi. 3-4-sinf o'qish, ona tili darslarida quyidagi metodlardan foydalanishni tavsiya sifatida tushuntirib o'tamiz.



“Soʻz va hodisalarni eslash” taʼlimiy oʻyini. Sinf oʻquvchilari kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir guruh bittadan soʻz tanlaydi.

1. Daraxt, paxta soʻzi bilan oʻyin boshlanadi. Dovuchcha, danak, doʻmbira, doira, doʻlana, paxta, piyola, parta, pomidor kabi "d", "p" harflari bilan boshlanadigan soʻzlar topiladi.

2. Daraxt, paxta soʻzlarining birinchi boʻgʻiniga da-, pax- boʻgʻin qoʻshib soʻz hosil qilis: dali,dada paxtakor paxtazor.... .

3. Berilgan soʻzlarga ohangdosh soʻzlar topish: paxta, taxta, shaxta, vaxta, daraxt, karaxt kabi.

4. Berilgan soʻzlar bilan bogʻliq boʻlgan barcha soʻzlarni eslash: paxta, momiq, chigit, shona, gʻoʻza, koʻsak; Daraxt, barg, gul, meva, danak, kurtak, tomir, ildiz.

5. Berilgan soʻzlar ichidan birini tanlash: paxta, xat, daraxt, xatar 6. Berilgan soʻzlar bilan bogʻliq birorta hodisani eslash, hikoya, ertak, sarguzasht toʻqishga harakat qilish.

“Topagʻon” oʻyini. Quyida berilgan soʻzlar ishtirokida matn tuzing va unga sarlavha toping.

1. Tulki, sichqon, mazali non, dush, qochdi, dum, yongʻoq;
2. Xurmo, malla soch, kamon, tush, afsus, daryo, osmon;
3. Taksi, kino, pul, sahifa, chipta, uyalib qoldik, sahna;
4. Ovchi. Muzqaymoq, boʻri, hayvonot bogʻi, qafas, daraxt;
5. Tufli, koptok, erka, oyna, ertak, tosh.

“Begona” oʻyini. Bunda beshta soʻz bir tanish hikoyadan yoki ertakdan olinib, bitta soʻz begona asardan olinadi. Masalan: "Oʻgay" "Erka", "Mehnatsevar", "Sehrli sandiq", "Ajdar" bitta "Kulol" begona soʻz. Shu begona soʻzdan ertakni davom ettirishadi. Bola dasturda belgilangan bilimlarni kamida davlat taʼlim standarti talablari darajasida oʻzlashtirishi kerak. Oʻqituvchi bu jarayonni bolaga zavq bagʻishlovchi mana shunday oʻyinlar asosida qura bilsa, bilim olish jarayoni shodlik va zavq manbaiga aylanadi va shu bilan birga oʻquvchiga erkinlikni his etash imkonini beradi.

“Kim koʻp soʻz tuzadi” oʻyini. Oʻquvchilarga biror harf (tovush)ga oid soʻzlar topish vazifasi yuklatiladi. Bu harf (tovush) soʻz boshi, soʻz oʻrtasi va soʻz oxirida keishi lozimligi vazifasi beriladi. Masalan. "a" tovushiga oid soʻzlar toping. Soʻz boshida: ayiq, asal,... . Soʻz orasida : sariq, maktab Soʻz oxirida: bogʻcha, chana... kabi. “Harflarni shunday oʻzgartirinki, soʻz hosil boʻsin” oʻyini. Bolalarga soʻzlar beriladi. Oʻquvchilarga soʻzdagi biror harfni oʻzgartirish orqali boshqa soʻz



hosil qilishlari kerakligi tushuntiriladi. Kim ko'p so'z tuza olsa. Ana o'sha o'quvchi g'olib sanaladi. Masalan: Maktab - maqtab bor - bosh - bos kabi va hakazolar.

«**Berilgan harflar asosida she'rlar ayting**» o'yini. Mavzuga oid biror so'zning bosh harfiga moslab she'r, matn yaratish vazifasi qo'yiladi. O'quvchilar so'z mazmunini inobatga olib she'rlar to'qishlari kerak. Masalan: Vatan azizdir Azizdir elda. Tinchligin istaydi Aziz elimda Nomi o'chmas Mening dilimda, kabilar. "Berilgan bo'g'inlarga bittadan harf qo'shib so'zlar hosil qiling" o'yini. Bir bo'g'inli so'z berilib, unga bir harf qo'shish orqali o'quvchilar yangi so'z hosil qilishlari kerak. Masalan: Far: farq, fard. Farz Dar: dard, dars, darz ... kabi.

«**Berilgan so'zlardagi harflarni ko'rsatilgan raqamlar tartibi bilan**» **metodi.** Berilgan so'zning har bir harfi ketma-ketlikda (1,2,3,4...) Raqamlanadi. O'quvchi yangi so'z hosil qilish uchun o'qituvchi ko'rsatmasi asosida berilgan raqamlar tartibini inobatga olib, yangi so'zlar hosil qilishlari lozim: 1 2345 –chuqur, 2 13 45-uchqur, 3 4512 –qarich. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi mantiqiy metodlar, interfaol usullarda o'z aksini topadi. Dars berish usullari ta'lim beruvchining faoliyatini tashkiilashtirish vositasidir.

Ta'limga muhokama va rivojlantiruvchi xarakter beruvchi, ta'lim oluvchilarni mahsuldor faoliyatini ta'minlovchi dars berish va o'qitish usullari interfaol usullar deyiladi. Ana shunday interfaol metod va texnologiyalardan namunalar keltiramiz: Taqdimot va muzyoralar bu mashg'ulotni boshlash uchun mo'ljallangan qisqa mashqlardir. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi «to'siq»ni yoqotishga qaratilgan usul. Bu metod asosida guruh o'quvchilari orasidagi o'zaro ishonch, hurmat, o'zaro yaqinlikni his etishga o'rgatish yotadi.

Aqliy hujum yoki aqliy hamla - bu metod asosida chegaralangan vaqt ichida aqlning tezkor harakati orqali o'ziga xos muammo, vazifa xususida barcha o'quvchilarning imkon qadar ko'proq g'oyalarni yaratishi yotadi, ya'ni topshiriq barcha uchun yakka holda bajarilib, fikrlar umumlashtirilib bittasi ustida to'xtaladi.

Debat bu usulning maqsadi o'zaro baxs-munozara asosida mukammal yechim variantlarini yuzaga chiqarishdir. Gaplarni oxiriga yetkazish - bu mashqda o'quvchi o'z g'oyalarni ifodalash ustida ishlash, keyinchalik esa uni boshqalar bilan muhokama qilish imkonini beradi. Bunda bir jumla yoki so'z berilib, uni mantiqan oxiriga yetkazish so'raladi, o'quvchi esa shu jumalarga mos so'z tuzadi.

Davra suhbat - ta'lim oluvchilar davra stolida o'tirib, bir- birlarining savollariga konvert orqali javob yozadilar yoki suhbatni olib boruvchi boshlovchi orqali savoljavobga kirishadilar. Guruhdagi munozaralar - qoida tariqasida boshqa texnika turlari bilan aralash qo'llaniladigan hammaga ma'lum usulidir:



A) Katta guruhda muhokama- bunda butun guruh muayyan mavzuga doir bo'lgan g'oyalar yoki hodisalarni muhokama qilinadi. Muhokama rejalashtirilgan yoki uyushtirilgan mavzular atrofida o'tkaziladi.

B) kichik guruhlarda muhokama - mazkur o'quv tadbirida ixtiyoriy holatda masalani ko'tarish, muammoni muhokama qilish, hal etish, ko'tarilgan muammolar yechimini topish va g'oyalarni baholash uchun yig'ilgan to'rt-olti kishi ishtirok etadigan davra.

Xulosa o'rnida aytilish mumkinki, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish fanini zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqining o'sishida, qolaversa mavzularni oson tushunishlariga, bilim va ko'nikmalarini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-6079-son. Toshkent - 05.10.2020 yil.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
3. Alavutdinova, N., & Abdurahmonova, M. Ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish muammolari. O'ZBEKIST, 87.
4. Taubaevich, K. Z., & Abdigaziyevna, T. T. (2022). The Role Of William Shakespeare's Work In The Development Of European Literature. *Journal of Positive School Psychology*, 6(8), 299-304.
5. Taubaevich, K. Z., Kondybaevna, A. B., Ramazanovna, E. A., Karymsakova, B. A., & Atabaevna, K. A. (2022). Psychologism In Modern Prose. *Journal of Positive School Psychology*, 3682-3685.
6. Mustafayev, S., & Kadyrov, K. A. (2022). The Educational Potential of Art and Its Realization in the Context of Globalization. *International Journal on Integrated Education*, 5(6), 218-222.
7. Jubatkhanovna, S. S., & Jaksimuratovna, M. G. (2021). Types of structure of phraseologies in the work of T. Kaipbergenov "The secret known only to you". *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*, 12(14), 4486-4490.
8. Saklapbergenovna, P. G., & Mambetova, G. J. (2021). Morphological structure of ornonyms in the karakalpak language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 216-219.
9. Khakimov, K. M., Zakirov, A. A., Seytniyazov, K. M., & Gaypova, R. T. (2021). Some Aspects Of The Relationship Between Nature And Society In Geography.



NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO, 15320-15325.

10. Tursinbaevna, G. R. (2021). The use of interactive methods on the topic of geographic shell and its properties. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(8), 145-149.
11. Abdugaffarovna, O. K., & Kurbanovna, N. T. (2022). FEATURES AND TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF DIALOGICAL GENRES IN JOURNALISM (IN THE EXAMPLE OF TV INTERVIEWS). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 142-151.
12. Toshpo'latova, N. (2021, March). THE ROLE OF POLEMICS IN MAHMUDKHOJA BEHBUDI'S WORK. In Конференции.
13. Ташпулатова, Н. К. (2021). УЗБЕКСКАЯ ПУБЛИЦИСТИКА В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ 2020 ГОДА. In *Media Landscape of Russia and the World: Past, Present, Future* (pp. 592-598).
14. Nazira, T., & Mukarram, O. (2020). Online versions of local newspapers in Uzbekistan: problems and prospects. *Academy*, (4 (55)), 53-54.

